https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Boboxonov Boboxon

Namangan davlat universiteti Biotexnologiya fakulteti

Dorivor o'simliklar yetishtirish va qayta ishlash

texnologiyasi yo'nalishi 4 kurs bakalavr talabasi

MOYCHECHAK O'SIMLIGINING INSON ORGANIZIMIGA TASIRI VA TIBBIYOTDA QO'LLANILISHI

Annatatsiya: Ushbu maqolada Moychechak dorivor o'simligi va uning biologiyasi ekaogiyasi geografik tarqalishi va dorivor o'simlikning o'stirish texnologiyasi ,o'simlikning inson organizimiga tasiri,va bu o'simlikning tibbiyotda qo'llanilishi,o'simlik asosida olinadigan dori prepatlari va tasir mexanizimlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Moychechak,vitamin, damlama,nastoyka ,biofaol modda.

Kirish

Bugungi kunda tibbiyot jadal suratlarda rivojlanmoqda shunday bo'lsada insonlar organizimida turli tuman kassallik turlari paydo bo'lmoqda bu kasalliklarni davolashda kimyoviy sintez yo'li bilan olingan dori preparatlari ishlatilmoqda shunday bo'lsada kasalliklarni davolashda tabiy dori vositalarini o'rni aloxida o'zining o'rniga ega tabiy dorivor preparatlarning asosini dorivor o'simliklar tashkil qiladi va o'simliklar asosida tayyorlangan dori vositalari ,damlamalar nastoykalar,yig'ma choylarni o'rni beqiyos shunday o'simliklardan bittasi bu dorivor moychechak o'simligidir quyida dorivor moychechak o'simligi xaqida malumotlar bu o'simlikning biologik tafsifi geografik tarqalishi kimyoviy tasnifi,tibbiyotda ishlatiliashi va o'simlik hom ashyosi asosida olinadigan dorivor preparatlari haqida malumotlar keltiramiz.

Asosiy qisim

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Dorivor moychechak (Gazako't)-Chamomilla moychechak bo'yi 15-40 sm yetadigan bir yillik o't o'simlik.Poyasi tik o'suvchi ,sershox,ichi kovak.Barglari patsimon o'tkir uchli .Poya va shoxlari uzun bandli (Yashil moychechaklarda kalta bandli bo'ladi) savatchaga to'plangan gullar bilan tamomlanadi.Savatchalarining chetidagi gullari oq,tilsimon,o'rtadalaridagi gullari esa sariq naychasimon bo'ladi .Mevalari qo'ng'ir yashil pistasimon ko'rinishda bo'ladi.Moychechak o'simligi may oyidan boshlab to kuz oylarigacha gullaydi.

Dorivor moychechak o'simligi keng tarqalgan o'simlik hisoblanib deyarli hamma joylarda uchraydi va manzali gulli o'simlik sifatida ekib o'stiriladi va dori hom ashyosi tayyorlash maqsadida plantatsiyalarda o'stiriladi . Moychechak o'simligi tez o'suvchi va tez ko'payuvchi o'simlik hisoblanadi.

Maxsulot o'simlik qiyg'os gullaganda tayyorlanadi.Savatchalardagi gullar gullay boshlaganda tilsimon gullar yuqoriga qaragan bo'lib,to'liq gullagan davrida garizantal holatga o'tadi.Gullab bo'lgandan so'ng tilsimon gullar pastga qarab yo'naladi.Ayni shu vaqtda naysimon gullarda mevalari hosil bo'la boshlaydi.Savatchalardagi gullar qiyg'os gullagan davrda,yani tilsimon gullar garizantal holatga o'tgan vaqtida savatchalar tarkibida efir moylari eng ko'p yig'iladi.Shuning uchun gullarni shu davrda tayyorlash tavsiya etiladi.Savatchalar qo'llar yordamida yulib yoki xaltachali maxsus qaychi bilan qirqib yoki xaltali masus asboblarda taroq yordamida yulib olinadI.Yig'ilgan Gullar aralashmalardan tozalangandan so'ng soya yerlardagi quritkichlarda 40 c dan oshmagan haroratda quritiladi

O'simlikning tayyor maxsulotlari savatchaga to'plangan gullardan iborat.Dorivor moychechak savatchasining diametrlari 4-8mm, yarim sharsimon boladi.Savatcha chetidagi oq tilsimon gullari 12-18 ta bo'ladi o'rtadagi gullari sariq bo'ladi Yashil moychechakning savatchasi maydaroq bo'ib yashil naysimon gullardan tashkil topgan.Moychechak maxsulotlarining xushbo'y

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

xidi va achchiqroq o'tkir mazasi bor.Davlat farmakopiyasi asoslarida moychechak o'simligi maxsulotiga quyidagi talablar qo'yiladi. Maxsulot namligi 14% umumiy kuli 12%, 10%li xlarid kislatada erimaydigan kuli 4%,savatchadagi gullarining mayda qisimlari 30%,poya va barg aralashmalari 9%, qoraygan va qo'ng'ir savatchalari 5%,organik aralashmalari 3%,va mineral aralashmalar 0,5% dan oshmasligi kerak.

Moychechak savatchasida to'plangan gullari tarkibida 0,2-08% efir moyi apein ,kversimeritrin,kvarsetin liuteolin,va boshqa flavonoidlar Vitamin C shilliq va achchiq va boshqa moddalar bo'ladi .Moychechak o'simligi efir moyi ko'k suyuqlik bo'lib tarkibida 1,64-8.99% xamazulen ,20% seskviterpen spitlari kadinen bo'ladi.Efir moyi tarkibidagi seskviterpenlarning umumiy miqdori 50% gacha bo'ladi. Xamazulen efir moyining asosiy tasit etuvchi qismi xisoblanadi.

Moychechak ichaklarning yopishib qolishi mikroblarga allergiyaga va yallig'lanishgq qarshi xamda yaralarni davalovchi tasirga ega.Shuning uchun uning dorivor preparatlsri meda ichak ginikologik kaslliklarni davolashda ishlatiladi .Ulardan tashqari moychechak guli yumshatuvchi, antiseptik va

yallig'lanishga qarshi qo'llaniladi.Moychechak guli tarkibidagi kimyoviy brikmalar (xamazulen,matrisin,apigenin,gernearin va boshqalar) tasir etuvchi qisim xisoblanadi .Xamazulen tichlantiruvchi xossaga xamda ichaklarning yopishib qolishi, allargiya va yallig'lanishga qarshi tasirga ega.

Moychechak gulidan damlama va nastoykalar tayyorlanadi savatchalar meda kasalliklarda tomoq chayqashda ishlatiladigan va yumshatuvchi yig'malar shu bilan birga onkalagik kasalliklarda qo'lllaniladigan yig'ma choylar tarkiga ham kiradi.

Xulosa

Xulosa va kuzatishlarimiz asosida shuni ko'rdikki dorivor o'simliklar asosida olinadigan dorivor preparatlarning o'rni inson organizimiga tasiri

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

nixoyatda kata axamiyatga ega bu turdagi dorilar insonlarga zararli tasir ko'rsatmasligi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus talim vazirligi
2. O.K.Xojimatov, X.Q. Xaydarov, D.T.Xamrayeva, D.A. Imomova, A.N.Xo'janov O'zbekiston dorivor o'simliklar atlasi o'quv qo'llanma. Samarqand 2021.
3. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus talim vazirligi
4. E.T.Berdiyev, E.T.Axmedov
5. Tabiy dorivor o'simliklar
6. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus talim vazirligi tomonidan 5411100-dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi yo'nalishlari bo'yicha taxsil oluvchi bakalavrlar uchun o'quv qo'llanma sifada tavsiya etilgan. Toshkent 2018
7. Farmaseftika inistutlari talabalari uchun o'quv adabiyot
8. X.X.Xolmatov, O'.A.Axmedov
9. Farmakagnoziya .O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta talim vazirligi tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik sifatida tasdiqlangan.